

R-65

Janni RODARI

CHIPOLLINONING BOSHIDAN KECHIRGANLARI



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2017

Janni Rodari va uning qahramonlari

Yaqinda Genuyadagi ommaviy teatrda tomoshabinlarni zo‘r hayajonga solgan bir spektakl ko‘rigi bo‘ldi. Bu pyesa „O‘sha kecha hovlidagilar uxlamadi“ deb atalardi. Pyesada yovuz bir Maxluqning italyan bolalari hayotiga chang solgani hikoya qilinadi, bu Maxluq — urush edi. Lekin bu Maxluqqa g‘alaba qozonish nasib bo‘lmadi: xalq uni yer bilan yakson qildi. Spektakl ozodlik qo‘shiqlari bilan tamom bo‘ldi. Iste‘dodli yozuvchi Javanni (Janni) Rodarining bu pyesasi ham, boshqa asarlari singari hayotni, bolalarni sevish va ulardan zavqlanish tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshgan.

Rodarining nomi Italiyada ham kattalar, ham bolalar o‘rtasida mashhur. Janni Rodari bolalar uchun yozilgan juda ko‘p ajoyib she‘rlar muallifidir. Bu she‘rlarni S. Marshak rus tiliga juda yaxshilab tarjima qilgan. „Chipollinoning boshidan kechirganlari“ qissasi bizning Italiyada juda mashhur, u Janni Rodari muhar-

rirligi ostida chiqadigan bolalar gazetasi „Pionere“da bosilgan.

Rodarining qissasida ham, pyesasidagi singari, mehnatkash xalq unga dushman bo'lgan yovuz bir kuchga qarama-qarshi qo'yiladi. Qissada bu yovuz kuch — Qasrdir. Rodari bu Qasrni istibdod ramzi sifatida tasvirlaydi. Qasr xo'jayinlari — badavlat hukmdorlarga qarshi Chipollino va uning do'stlari kurash olib boradilar. Bir qancha ajoyib va g'aroyib sarguzashtlardan so'ng ular Qasrni qo'lga kiritadilar va ozod respublika tuzadilar. Bu respublikada bolalar bundan keyin o'z mamlakatiga qallob va muttahamlarning yana qaytib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'p ajoyib narsalarni o'rgandilar.

Rodari qissasida tasvirlangan turli afsonaviy uydirmalar haqiqiy hayot bilan chambarchas bog'liqdir. Italyan bolalari qissadagi knaz Limon mamlakati haqidagi hikoyani o'qib, bugungi Italiyani ko'z oldiga keltiradilar. Xalqning qashshoqligi, butun mamlakatni harbiylashtirmoqchi bo'lgan „xo'jayinlar“ning zolimligi, politsiyachilarning berahmliigi — bularning hammasini bolalar o'z mamlakatida har kuni ko'rib turadilar. Begunoh otasi qamoqxona tashlangan Chipollinoga bolalar chin yu-

rakdan achinadilar. Axir, qanchadan qancha italyan bolalarining ota-onalari faqat urushga qarshi chiqqanlari uchun qamoqxonalarga tashlangan. Bu yovuzlikka qarshi tolmay kurash olib boradigan quvnoq Chipollino italyan bolalarining eng sevimli qahramoniga aylandi.

Siz ham Chipollinoni yaxshi ko'rib qolasiz va bu quvnoq „Piyoz bola“ dunyodagi eng baxtiyor bolalar bo'lgan sizlarga Italiyadagi mehnatkash xalq bolalarining hayoti bilan yana ham yaxshiroq tanishishga yordam beradi, deb ishonamiz.

Yozuvchi
Leon de Repachi



BIRINCHI BOB

Chipollone knaz Limonning esxonasini chiqarib yubordi va jon holatda qochishga majbur qildi

Chipollino Chipollonening o'g'li edi. Chipollonining oltita ukasi bor edi, bular: Chipolletto, Chipollotto, Chipolludachia va boshqalar bo'lib, ularning hammasi hurmatli, lekin kambag'al Chipollone — piyozning bolalari edi. Ma'lumki, piyoz bor joyda ko'z yoshi ham bo'ladi.

Kunlardan bir kuni Chipollone va boshqa kambag'allar yashaydigan mahalladan saroy ahllari — limon va limonchalar kuzatuvida o'sha mamlakat hukmdori knaz Limonning o'zi o'tib

qoldi. Knaz egniga tantanalarda kiyadigan sariq mundir, boshiga oltin qo'ng'iroqchali, soyaboni keng chiroyli shlapa kiygan edi.

Amali kattaroq bo'lgan saroy ahllarining shlapalarida kumush qo'ng'iroqchalar, amali pastroq bo'lganlarining shlapalarida esa bronza qo'ng'iroqchalar jiringlab borar edi, Nima gap ekanini bilish uchun hamma ko'chaga yugurdi. Chipollone bilan o'g'li Chipollino marosimni ko'rishga qiziqqanlarning birinchi qatorida turar edilar. Ularni yonlaridan ham, orqalaridan ham turtishar edi. Orqadan allakim qattiq bir itarib yuborgan edi, Chipollone o'zini o'nglay olmay, oldinga qadam bosdi va knazning oyog'ini bosib oldi.

Esxonasi chiqib ketgan knazning ko'zlari olayib ketdi-yu, jon holatda qochib qoldi.

O'ntacha qo'riqchi Chipollone ustiga tashlandi va uning qo'llariga og'ir temir kishan solib, qamoqxonaga olib ketdi.

— Chipollino! Chipollino! — deb qichqirdi chol.

Chipollinoning nazarida o'ng ko'zi birdan xiralashayotganday bo'ldi. Bilsa, kipriklariga ilinib turgan ko'z yoshlari unga xalaqit bera-yotgan ekan.

— Tentak! — dedi o'ziga o'zi qat'iy yo'sinda Chipollino va tishlarini mahkam qisdi. Qo'rqib

ketgan ko'z yoshlari shu zahotiyiq yo'qoldi-yu, shundan keyin sira ko'ziga yosh kelmaydigan bo'ldi.

* * *

„Knazning hayotiga qasd qilganligi uchun“ Chipollone umrbod qamoqqa hukm qilindi. U hatto o'lganidan keyin ham qamoqdan chiqolmas edi, chunki janobi oliylarining qamoqxonasida qabriston ham bor edi.

Ertasiga Chipollino otasini ko'rgani keldi.

— Sho'rlik otam! — dedi u, mahbusni quchoqlar ekan, — sen uchiga chiqqan bezorilar bilan o'tirasan endi...

— O'g'lim, bunday bema'ni gaplarni qo'y, — dedi otasi. — Janobi oliylarining qamoqxonalariga eng sofdil odamlar qamalgan.

— Bo'lmasa, nega ularni temir panjara ichiga qamaydilar? — deb so'radi Chipollino.

— Sofdil odamlar bo'lishgani, o'z xalqini jonidan sevganlari uchun. Odatda, qamoqxonaga o'g'ri va qotillarni qamaydilar. Lekin davlat tepasiga knazlar va boylar chiqib olsa, barcha o'g'ri va qotillarga ularning saroylaridan ish topiladi. Qamoqxonaga esa eng yaxshi odamlar qamaladi.

— Men yaxshi odam bo'lishni xohlayman, lekin umr bo'yi qamoqda o'tirishni xohlamay-



— *Sho'rlik otam! — dedi Chipollino, mahbusni quchoqlar ekan.*

man, — dedi Chipollino, — Yaxshisi, men to'g'ri, gunohsiz odamlarning hammasini qamoqdan ozod qilaman.

Shu payt qo'riqchi ko'rishish vaqti tamom bo'lganini bildirdi.

— Chipollino, — dedi xayrlashayotib bechora mahbus, sen endi katta bo'lib qolding, o'z yo'lingni o'zing topishing kerak. Oying bilan ukalaringga Chipolla amaking yordam qiladi. Sen borib ishla, o'qi.

— Mening kitoblarim yo'q-ku! Kitob olishga pulim ham yo'q.

— Hechqisi yo'q. Sen muttaham va qalloblarning qilmishlarini yaxshilab o'rgan — o'sha senga ilm bo'ladi.

— Yur! Yur! Ko‘p vaysayverma! — deb qichqirdi qo‘riqchi.

Chipollino otasini mahkam quchoqlab o‘p-di-da, tez va shaxdam yurib qamoqxonadan chiqib ketdi.

Ertasi kuni u onasi va ukalarini Chipolla amakisining ixtiyoriga qoldirib, eng zarur narsalarni oldi-da, yo‘lga tushdi. Ikki soatlar-dan keyin u kichikroq bir shaharning chekka-siga yetib keldi va birinchi duch kelgan uy oldi-da to‘xtadi. Uy juda g‘alati edi, ko‘rinishidan itlarning uychasiga o‘xshar edi. Uyning kich-kinagina derazasidan Chipollino uzun sariq so-qolli bir cholning holsiz yuzini ko‘rdi.

IKKINCHI BOB

Chipollino kavalier Pomidorni umrida birinchi marta yig‘lashga majbur qildi

— Hey, birodar! — deb qichqirdi Chipolli-no. — bu nima o‘zi, uyingmi?

— Ha, — deb javob berdi chol, uni hamma kambag‘al Qovoq deb atar edi. To‘g‘ri, uyi biroz torroq, lekin shamol bo‘lmagan vaqtlarda bino-yidek.

Bolalar, hamma gap shundaki, bu uyni kam-bag‘al Qovoq yaqindagina qurib bitkazgan edi.

U bolaligidayoq o'ziga bir uy qurishga ahd qilgan va shundan beri har yili bittadan g'isht yig'ar edi.

Umr o'taverdi. Bechora Qovoq qarib qoldi, g'ishtlari bo'lsa hali oz edi...

Lekin u uy qurish fikridan qaytmadi.

— Men kichkinagina uycha quraman, — der edi u, ishlab yurar ekan o'ziga o'zi. — Menga dang'illama imoratning nima keragi bor? Men bir faqir kishiman.

Qovoq har g'isht qo'yganida bir uh tortar edi. Lekin imorat bitgandan keyin u og'ir bir xo'rsinib qo'ydi, chunki qurgan uyi juda ham kichkina edi.

Zo'r mashaqqatlar bilan uyga kirib olgandan keyin bechora Qovoq har xil noqulayliklarga duch keldi. Qaddini rostlasa, uyning tomi qisir-qisir qilib ketdi. Oyoqlarini aytmaysizmi?! Oyoqlari uyga sig'may, tashqarida qoldi, Qovoqning qimirlamay o'tirishdan boshqa iloji yo'q edi.

Bu orada kambag'al Qovoqning uyini ko'rgani hamma tomondan odamlar to'plana boshladilar.

Bir to'da quvnoq bolalar yetib keldilar. Ulardan eng kichkinasi bir irg'ib tomga chiqib oldida, sakrab-sakrab ashula ayta boshladi:

Uy qurdi bizning Qovoq
Keng emas uyi biroq,
Oshxonada o'ng qo'li,
Yotog'ida chap yuzi,
O'rnidan tursa tikka,
Boshi tegadi shipga.

— Xudo xayringizni bersin! — deb zorlandi bechora Qovoq. — Xudo xayringizni bersin, sekinroq sakrang! Uyni buzib yubormang yana!

Lekin u tezda bolalar bilan do'stlashib oldi va hatto ularga navbatma-navbat uyga kirishga ham ruxsat berdi. O'zi bo'lsa, bolalar biror narsani sindirib qo'ymasinlar, deb uyning yonida qarab turdi...

Kambag'al Qovoq Chipollinoga o'z tarixini hikoya qilib berayotganda birdan chang-to'zon ko'tarilib qoldi. Kuchli dovul yaqinlashib kelayotgandek, uylarning deraza va eshiklari qattiq-qattiq yopila boshladi. Hatto tovuqlar, it va mushuklar ham qayerga yashirinishni bilmay, ko'chada chopib yurar edi...

Chipollino nima gapligini hali so'rab ham ulgurmagan ediki, chang-to'zon dahshatli bir ovoz chiqarib ko'cha tomondan eshitila boshladi va xuddi kambag'al Qovoqning uyi oldiga kelib to'xtadi.

Bu to'rtta bodring qo'shilgan izvosh edi. Bolalar, bu mamlakatda odamlar ham, hayvonlar

ham meva va sabzavotlarga o'xshashligini endi o'zingiz tushungandirsiz. Izvoshchi shoshib-pishib izvoshning eshigini ochdi. Undan xuddi pishgan pomidorday qip-qizil kulcha yuzli, gerdaygan allakim shoshmasdan tushib keldi.


Bu graf qasrining bosh gumashtasi kavalер Pomidor edi. U bezrayib ko'zlarini kambag'al Qovoqqa shunday tikdiki, bechora Qovoq ko'zlarini beixtiyor yumib oldi va o'yladi:

„Mana, hammasi tamom bo'ldi!.. Hech qanday kavalер Pomidorni ko'rganim yo'q! Men o'z uyimda qayiqda suzib ketayotgan dengizchiga o'xshayman, atrof ko'm-ko'k suv... Qanday yaxshi, uyim bir tekisda tebranmoqda. U yoqqa-bu yoqqa! U yoqqa-bu yoqqa!..“

Lekin uy Qovoq o'ylagandek dengizda tebranayotgani yo'q edi. Uni kavalер Pomidor bo'g'otidan ushlab, butun kuchi bilan u yoqqa-bu yoqqa silkitayotgan edi.

— O'g'ri! — deb qichqirardi kavalер Pomidor. — Muttaham, sen tul grafinya Olchalarining yeriga saroy quribsan, qonunni buzishning, tul xotinlar bilan yetimlarni xafa qilishning qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman senga.

— Janoblari! — deb yolbordi kambag'al Qovoq, — ishonimg, menga uy qurishga graf Olchaning o'zi ruxsat bergan.



— O'g'ri! — deb qichqirardi kavalер Pomidor.

— Rahmatli graf Olchaning o'lib ketganiga o'ttiz yil bo'ldi! Qolganini senga advokat aytib beradi... Advokat, advokat!

Mahalliy advokat sinyor No'xat o'zining nomini eshitishi bilanoq duv etib to'kilgan no'xatdek, sakrab ko'chaga chiqdi.

— Men shu yerdaman, janoblari! Xizmat-ingizga tayyorman, janoblari! — dedi u ikki bukilib ta'zim qilar ekan.

— Mana bu odamga ayting, qonunga muvofiq bu uyni tashlab, tezda bu yerdan jo'nab qolsin! — deb qichqirdi kavalер Pomidor.

— Hozir bajaramiz. Rostini aytsam... — deb qo'rqib ketganidan tobora ko'karib borayot-



— Men shu yerdaman, janoblari! Xizmatingizga tayyorman, janoblari!

gan No‘xat gap boshlagan edi, kavalер Pomidor uning so‘zini bo‘ldi.

— Nima, nima?! Rostini aytsam, deysizmi?! Siz advokatmisiz?.. Advokatmisiz, yo‘qmi!..

— Advokatman, janoblari!..

— Shunday bo‘lgach, rost gap bilan nima ishing bor?! Modomiki, siz advokat ekansiz, demak, men haqman. Boring.

— Xo‘p bo‘ladi, janoblari.

Advokat xuddi sichqon dumiday lip etib bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

— Advokatning gapini eshitdingmi? — dedi Pomidor, Qovoqqa qarab.

— Axir advokat hech narsa degani yo‘q-ku,— degan javob bo‘ldi.

— Nima, nima!!! Sen hali gap qaytarmoq-chimisan deyman-a, badbaxt?

— Janoblari, men og‘zimni ham ochganim yo‘q, — deb to‘ng‘illadi kambag‘al Qovoq.

— Bo‘lmasa buni kim aytdi?

Pomidor o‘qrayib atrofga qaradi.

— Muttaham, qallob! Semizlikdan yorilib ketmagin tag‘in! — dedi yana boyagi ovoz va Chipollino xotirjamlik bilan dag‘dag‘a qilayotgan kavalер Pomidor oldiga bordi.

— Sen qayerdan paydo bo‘lib qolding! — deb so‘radi Pomidor, Chipollinoga qarab. Bu gaplarni shunday bir tirmizak bolaning aytgani uning xayoliga ham kelmagan edi. — Sen kim-san o‘zing?

— Men o‘quvchiman.

— Nimalarni o‘rganasan?

— Men qalloblarni o‘rganib yuribman, janoblari. Mana, hozir o‘shalarning bittasi yo‘liqib qoldi.

— Kim ekan u?! Menga ko‘rsat-chi!

— Hozir, janoblari, — deb javob berdi Chipollino va cho‘ntagidan kichkinagina oyna chiqardi-da, uni kavalер Pomidorning yuziga tutdi.

Pomidor oynaga qiziqib qaradi. Turgan gapki, unda o'zining qip-qizil mis tog'oraga o'xshagan yuzini, kichkina jirkanch ko'zlarini, kopilkaning¹ yorig'iga o'xshagan og'zini ko'r-di!

G'azablanib ketgan kavalер Pomidor Chipolinoning sochidan ushlab oldi.

Lekin shu payt bo'lishi muqarrar bo'lgan bir ish yuz berdi, u piyozning sochlari edi-da.

Toshyurak kavalер Pomidorning ko'zlari achishib ketdi va ko'z yoshlari xuddi chinakam favvoraday otilib chiqa boshladi. Hatto ikkita favvora desa ham bo'ladi, chunki ko'z yoshlari ikki yuzidan ikkita ariqqa o'xshab oqar edi.

Ko'cha hozirgina qorovul suv sepganday birpasda ho'l bo'lib ketdi.

„Men hech qachon bunday ahvolga tushmagan edim-a!“ — deb o'ylardi qo'rqib, kavalер Pomidor.

Chindan ham u shu vaqtgacha hech yig'lamagan edi. Chunki, birinchidan, unda qalb yo'q edi, ikkinchidan, u hech qachon piyoz artmagan edi.

Ko'z yoshlari unga shunday g'alati bir narsa bo'lib ko'rindiki, u sakrab izvoshiga chiqib

¹ **Kopilka** — chaqa, tanga yig'adigan teshikli qu-ticha.



*Ko'cha hozirgina qorovul suv sepganday
birpasda ho'l bo'lib ketdi.*

olib, otlarga qamchi urdi va uni gumburlatib
qochib qoldi.

Lekin u jo'nab ketayotib:

— Qovoq, seni ogohlantirdim!.. Seni ham,
yaramas bola, ko'z yoshlarim uchun bir do-
dingni beraman! — deb qichqirdi.

UCHINCHI BOB

Chipollino ko'ppak Mastinoni aldadi

Chindan ham bir kuni ertalab kavalier Po-
midor yana bechora Qovoqning uyiga keldi.
Bu safar u bir qancha qurollangan qo'riqchi-
limonchalarni boshlab keldi. Ular hech bir
so'zsiz kambag'al Qovoqni o'z uyidan haydab

chiqarib, uning o'rniga saroydagi eng qopag'on, jirkanch it Mastinoni qo'yib ketdilar.

— Bu yerdagi yaramaslar, — dedi kavaler Pomidor, xavotirlik bilan atrofga alanglab, — endi meni behurmat qilishning qanaqa bo'lishini bilib qo'yishadi!

— To'g'ri, to'g'ri! — deb ma'qulladi saroy ko'ppagi.

— Tentak chol Qovoqqa kelsak, agar unga boshpana juda kerak bo'lsa, men unga qamoqxonadan joy topib beraman.

— To'g'ri, to'g'ri! — deb yana ma'qulladi ko'ppak.

Bu vaqtda Chipollino va unga o'z ishxonasidan boshpana bergan usta Uzum ostonada o'tirib, bu voqeani indamay kuzatib turar edilar. Bechora Qovoq tumbochka ustiga o'tirib, og'ir-og'ir xo'rsinar edi.

— Hushyor bo'l, xizmatingni yaxshilab qil! — deb qichqirdi Pomidor, Mastino ko'ppakka qarab.

Izvoshchi bodringlarga qamchi urdi, izvosh gumburlagancha jo'nab ketdi.

Yozning issiq bir kuni edi. It Mastino dumlarini likillatib, kambag'al Qovoqning uyi yonida aylanib yurar edi. Ko'p o'tmay u issiqdan terlay boshladi va qani endi bir stakan muzday apelsin sharbati bo'lsa, deb xayol surdi.

„Bugun ertalab nima yegan edim-a? — deb o‘ylardi Mastino, — Yuragim biram kuyib ket-yaptiki...”

Shu payt ustaxona ostonasida Chipollino ko‘rindi.

— Menga bir stakan apelsin sharbati keltirib bersang-chi? — deb qichqirdi Mastino unga.

— Jonim bilan keltirib berar edim-u, ustam mana shu botinkani darrov yamab kel deb buyurdi, — dedi Chipollino va uyga kirib ketdi.

— Muncha beodob bola ekan, — ming‘illadi it.

Birozdan keyin Chipollino yana ko‘rindi.

— Hoy bola! — dedi yolvorgandek bo‘lib Mastino. — Bir stakan suv keltirib bera olmay-sanmi-a?

— Jonim bilan keltirar edim-a, sinyor, — deb javob berdi Chipollino, — lekin gap shundaki, xo‘jayinim hozir yana bir juft botinka berdi, men ularga yangi poshna qoqishim kerak.

Soat uchlarga borganda quyosh shunday qattiq qizdira boshladiki, hatto tosh yo‘llardan ham hovur ko‘tarila boshladi. Mastino esa butunlay holday toyib qoldi. Shu vaqtda Chipollino bir shisha idishni oldi-da, uni uxlata-



— *Xohlaganingcha ichaver!* — dedi *Chipollino*.

digan dori qo'shilgan suv bilan to'ldirdi; bu suvdan usta Uzunning xotini tezroq uxlash uchun ichib yurar edi...

Chipollino barmog'i bilan idishning og'zini berkitib turib, go'yo uni ichayotganday lablariga tekkizdi.

— Eh, mazza, muzdek ekan! — dedi tamshanib *Chipollino* va qo'li bilan ko'kragini silab qo'ydi.

— Sinyor *Chipollino*, — dedi *Mastino*, — nega shuncha ichsangiz ham shishadagi suv kamaymaydi?

— Bu sehrli shisha, — deb javob berdi *Chipollino*, — u hech qachon tugamaydi.

— O'sha suvdan menga ham bir ho'plamgina bermaysizmi-a?

— Bir ho'plam deysanmi? *Xohlaganingcha ichaver!* — deb javob berdi *Chipollino* va idishni itning tumshug'i oldiga qo'ydi.

Mastino idishga shunday ochko'zlik bilan yopishdiki, bir ko'tarishdayoq uni bo'shatib qo'ydi.

— Tamom bo'ldi-ku. Sen bo'lsang, yana sehrli idish, deb yuribsan-a! — deb qichqirdi unga it.

Biroq Chipollino unga javob berib ulgura olmadi. Mastino yerga yiqilib, qattiq uyquga ketdi. Chipollino bo'lsa do'stlari bilan birga Qovoqning uyini zambilg'altakka ortib, o'rmonga, baland bir eman daraxti ostida yashovchi sinyora Chernikanikiga yashirib qo'ydilar.

TO'RTINCHI BOB

Baron Apelsinning yeb to'ymasligi va gersog Mandarinning injiqligidan ortgan tashvishlar

Bolalar, bu atrofdagi uylar, yerlar, monastir va cherkovlarning cheksiz xo'jayini grafinya Olchalar ekanligini allaqachon o'zingiz tushunib oldingiz. Endi biz ana o'sha grafinya Olchalarning qasriga nazar tashlaymiz.

Chipollino Qovoqning uyini ko'chirgan kun qasr ham to's-to'polon edi. O'sha kuni grafinya Olchalarnikiga ularning qadrdon qarindoshlari baron Apelsin bilan gersog Mandarin kelishdi.

Baron Apelsin katta grafinyaning o'lib ketgan eriga xolavachcha bo'lar edi. Bu baron juda ishtahasi karnay odam edi. U tong otgandan kun botguncha, kun botgandan tong otguncha ovqat yer edi. U faqat kechasi, atigi bir soatgina dam olar edi, xolos.

— Uxlash — vaqtni bekorga o'tkazish, — der edi u. — Axir uxlasam, ovqat yeyolmayman-da!

Baronga juda ko'p yerlar qarar edi, o'sha yerlardan har xil oziq-ovqat ortgan karvonlar uning uyiga beto'xtov kelib turar edi.

Oxiri dehqonlar shunday xonavayron bo'ldilarki, yegani ovqat, kiygani kiyimlari ham qolmadi, endi ular baronga hech narsa yuborolmas edilar.

Shundan keyin baron qasrda yashashga grafinyalardan rozilik so'radi. Katta grafinya uni o'zinikiga taklif qildi.

To'g'risini aytganda, kichik grafinya bundan xursand bo'lmadi.

— Baron bizni xonavayron qiladi, — deb javrardi u, — baron bor-yo'g'imizni bir likopcha makaron yegandek yeydi-qo'yadi.

Katta grafinya ho'ngrab yig'lay boshladi.

— Sen mening qarindoshlarim kelishini xohlamaysan! Bechora baronga sira yordam qilging kelmaydi!..

— Xo‘p, — dedi kichik grafinya, — bo‘lmasa men ham erimning jiyani gersog Mandarinni Qasrga taklif qilaman.

— Mayli, — dedi chor-nochor qolgan katta grafinya. — U bitta jo‘jadan ortiq hech narsa yeyolmaydi. Xudo rahmat qilgur, bechora eringning qarindoshlari shunday kichkina-kichkina, oriq-oriq odamlar ediki, ularni oddiy ko‘z bilan zo‘rg‘a ko‘rib bo‘lardi. Xudo rahmat qilsin, mening erimning qarindoshlari esa, aksincha, baland bo‘yli, yo‘g‘on odamlar edi, ularni yiroqdan ham ko‘rish mumkin edi.

Chindan ham baron Apelsin juda gavnali odam edi. Bir kilometr naridan ko‘rgan kishi uni katta bir tepa deb o‘ylashi mumkin edi.

Baron kelgan kuniyoq grafinyalar uning kattakon qornini bir joydan ikkinchi joyga ko‘tarib yurish uchun darrov xizmatchi topishga majbur bo‘ldilar. Shu munosabat bilan kavaler Pomidor eski-tuskichi Loviyani zambilg‘altagi bilan qasrga chaqirtirdi.

Baronning qornini aravaga soldilar. Loviya zambilg‘altakni kuchining boricha tortdi, lekin u bir santimetr ham jilmadi.

Tezlik bilan yana ikkita xizmatkor chaqirishga to‘g‘ri keldi. Shundan keyingina baron bog‘da sayr qilib yura oladigan bo‘ldi.

Biroq u sayr vaqtida ham o'zining asosiy ishini unutmas, qovurilgan kurkalarni hadeb tushirgani-tushirgan edi.

Gersog Mandarin ham grafinyalarga ko'p tashvish orttirdi.

Kichik grafinyaning xizmatchisi bechora Qulupnay gersogning ko'ylagini yuvishdan bo'shamadi. U toza ko'ylakni olib kelishi bilan oq gersog burnini jiyirdi-da, birdan yig'lashga tushdi. Keyin sakrab shkaf ustiga chiqib:

— Yordam beringlar, yordam beringlar! — deb baqira boshladi.

Shovqinni eshitib yugurganicha kichik grafinya yetib keldi, ikki qo'li bilan boshini ushlab:

— Senga nima bo'ldi, Mandarinjon? — deb so'radi.

— Ko'ylagimni yomon yuvibdi. Bundan ko'ra o'lganim yaxshi.

Kichik grafinya gersog o'zini o'ldirib qo'ymasin deb, unga marhum erining hamma shohi ko'ylaklarini sovg'a qildi.

Lekin birozdan keyin yana:

— Yordam beringlar, yordam beringlar! — degan qichqiriq eshitildi.

Kichik grafinya chopgancha uyga kirdi.

— Azizim Mandarinjon! Senga nima bo'ldi?

— Yoqamning tugmasini yo'qotib qo'ydim. Ortiq yashashni xohlamayman!